

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MILLIY VALYUTADA KREDITLASH

Botaxanov Dauletbay Xojabayevich

Buxoro Osiyo Xalqaro universiteti iqtisod yo'nalishi magistri
+998 93 363 50 49 butahanovdauletbaj@gmail.com

Annotatsiya: *Hozirgi kunda Respublikamizdagi barcha tijorat banklari o'z kredit va mikrocreditlari bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etish va ular faoliyatini yanada kengaytirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Mikromoliyalash subyektlari banklar, mikrocredit tashkilotlari, lombardlar bo'lishi bilan birga, shulardan tijorat banklari mikrocreditlar ajratish bo'yicha yetakchilik qilib kelmoqda. Bank tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash uchun milliy valyutada kreditlar ajratiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda oilaviy korxonalar kreditlash ob'ektlari hisoblanadi. Kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.*

Kalit so'z va iboralar: *bank tizimi, investitsiya, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, milliy valyuta, mikromoliyalashtirish.*

Аннотация: *В настоящее время все коммерческие банки нашей республики своими кредитами и микрокредитами способствуют созданию и дальнейшему расширению субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства. Субъектами микрофинансирования являются банки, микрокредитные организации, ломбарды, а лидерство в предоставлении микрокредитов занимают коммерческие банки. Банк выделяет кредиты в национальной валюте для поддержки субъектов малого предпринимательства. Объектами кредитования являются индивидуальные предприниматели, микропредприятия, малые предприятия, фермерские и фермерские хозяйства, семейные предприятия. Ссуды предоставляются на основе условий погашения, платежеспособности, обеспечения, срока погашения и предполагаемого использования.*

Ключевые слова и понятия: *банковская система, инвестиции, финансовая поддержка, национальная валюта, микрофинансирование.*

Annotatsion: *At present, all commercial banks of our republic, with their loans and microcredits, contribute to the creation and further expansion of small businesses and private entrepreneurship. The subjects of microfinance are banks, microcredit organizations, pawnshops, and commercial banks are the leaders in providing microcredits. The Bank allocates loans in the national currency to support small businesses. The objects of lending are individual entrepreneurs, micro-enterprises, small enterprises, farms and farms, family enterprises. Loans are made based on repayment terms, solvency, collateral, maturity and intended use.*

Key words and concepts: *banking system, investments, financial support, national currency, microfinance.*

So'nggi yillarda respublikamizda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Xususan, bank tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun ko'rsatilayotgan bank xizmatlari, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kreditlash hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda asosiy e'tibor, kichik tadbirkorlik sub'ektlariga investitsiya maqsadlari, boshlang'ich kapitalni shakllantirishga uzoq muddatli kreditlar ajratish hamda mikrokreditlashni kengaytirish orqali kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rnini oshirish, yangi ishchi o'rinlari tashkil etishga qaratildi.

Masalan, mamlakatimizda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, xususan, tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida bank tizimi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuqori baholab kelinmoqda. Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining (2013 yilning oktyabr oyida) e'lon qilingan «Biznesni yuritish» (Doing business) bo'yicha hisobotida O'zbekistondagi ishbilarmonlik muhiti 10 pog'onaga, kreditlash sohasidagi reyting ko'rsatkichlari esa 24 pog'onaga ko'tarilganki, bu davlatimiz rahbari va hukumat tomonidan mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik va investitsion muhitning yaratilishi borasida olib borilayotgan ishlarning ijobiy samara berilganligi keyingi moliyaviy yillarda xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlarining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishini ortishiga olib kelmoqda.

Takidlash lozimki, ushbu «Biznesni yuritish» hisobotini tuzishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga qulay bank xizmatlari ko'rsatilishini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning mavjudligi alohida baholanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi va ularga yaratib berilayotgan sharoitlarni e'tiborga olgan holda Markaziy bank tomonidan “Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini, shuningdek, kichik biznes sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash” Tartibi (ro'yxat raqami 907, 2000 yil 7 mart) belgilangan tartib-taomillar qayta ko'rib chiqildi .

Xususan, mazkur Tartib o'rniga Markaziy bank Boshqaruvining 2013 yil 23 noyabrdagi 22/9-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risida”gi Nizom (ro'yxat raqami 2546, 2013 yil 27 dekabr) qabul qilinib, unga kichik tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulaylik yaratuvchi bir qator me'yorlar kiritildi . Respublikamiz tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratilishi bevosita ularning resurs bazasiga bo'g'liq bo'lib hisoblanadi. Banklarning kapitali va depozit mablag'larining yuqori sur'atlarda o'sishi, o'z navbatida, ularning iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolining yanada

kengayishiga, aktivlar va kredit qo'yilmalari hajmining sezilarli darajada ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. So'nggi 5 yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 3,1 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 3,7 barobarga ko'paydi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda. 2022 yilda iqtisodiyot real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar hajmi 2021 yildagiga nisbatan 27,7 foizga oshib, ularning tijorat banklari jami kredit portfelidagi salmog'i 79,8 foizni tashkil etdi .

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga ajratilgan jami kreditlar 2022 yilda 15870 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2021 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan. Shundan ajratilgan mikrokreditlar o'tgan 2021 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobarga oshgan va qariyb 3326 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab - quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda. Biznes yuritish jumladan, bank faoliyatini amalga oshirish sharoitlarining yaxshilanishi va joriy etilgan imtiyozlarning ijobiy ta'siri natijasida 2016 yil mobaynida mazkur soha sub'ektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar summasi 2021 yildagiga nisbatan 32,3 foizga oshib, 12,1 trln. so'mni tashkil etdi.

Hozirgi kunda Respublikamizdagi barcha tijorat banklari o'z kredit va mikrokreditlari bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etish va ular faoliyatini yanada kengaytirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Jumladan ATIB "Ipoteka bank" tomonidan 2022-yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga ajratilgan mikrokreditlarning eng katta salmog'i aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan bo'lib, miqdori 122 mlrd. so'mga teng. Undan keyingi o'rinlarda qurilish va xizmat ko'rsatish hamda sanoat sohalariga ajratilgan kreditlar egallagan. ATB "Mikrokreditbank" misolida ko'radigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy biznes sub'yektlariga ajratilgan jami kreditlar va mikrokreditlar nisbati quyida o'z aksini topgan: Mikrokredit qarz oluvchiga kredit ajratilayotgan loyihaning o'zini-o'zi qoplashi hisobga olingan holda aylanma mablag'larni to'ldirishga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladi.

Mikromoliyalash sub'yektlari banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar bo'lishi bilan birga, shulardan tijorat banklari mikrokreditlar ajratish bo'yicha yetakechilik qilib kelmoqda. Kreditlarni rasmiylashtirishda qarz oluvchi ariza bilan birgalikda bir qancha hujjatlar bilan bankka murojaat qiladi. Ariza 3 ish kuni davomida ko'rib chiqiladi. Undan so'ng majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida ta'minot turlaridan biri taqdim etiladi. Kredit hisobiga sotib olingan mulk ushbu kredit bo'yicha o'z qiymatining 80 foizi miqdorida garov narsasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hujjatlar ko'rib chiqilib, kredit berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilinganda, mijoz va bank

o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi va kreditning muddati, miqdori hamda foiz stavkasi belgilanadi. Shundan so'ng mijozga kredit hisobvarag'i ochilgan holda kreditlar naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda shu hisobvaraقدan o'tkazib beriladi.

Bank tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash uchun milliy valyutada kreditlar ajratiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda oilaviy korxonalar kreditlash ob'ektlari hisoblanadi.

Kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

Kreditlar kreditlanayotgan tadbirning o'zini-o'zi qoplashini hisobga olgan holda quyidagi muddatlarga beriladi:

- qarz oluvchi o'z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag'larni shakllantirish va investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga - 12 oy muddatgacha;

- aylanma mablag'larni to'ldirishga - 18 oy muddatgacha;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga - 24 oy muddatgacha.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori kredit shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

Qarz oluvchi kredit olish uchun xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankiga quyidagi asosiy hujjatlarni taqdim etadi:

- ariza;

- qarz oluvchining bank hisobvarag'iga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi ko'rsatilgan biznes-reja;

- qarz oluvchining taqdim qilgan tegishli davlat soliq inspeksiyasiga oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-son shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzlarga doir solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno;

Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida quyidagi ta'minot turlarini taqdim etadi:

- mol-mulk va qimmatli qog'ozlar garovi;

- tijorat banki yoki sug'urta kompaniyasining kafolati;

- uchinchi shaxs kafilligi;

- qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni qaytarmaslik xatarining tijorat banki foydasiga sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi;

- ta'minotning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. (Қарор, 2002) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамаси “Банкларнинг кредитлари бўйича қарздорлик ўз вақтида қайтарилмаган тақдирда ундирувни қарздорларнинг ликвидли мол-мулкига қаратиш” тартиби тўғрисидаги №422-сонли қарори.

2. (Низом 2012) Ўзбекистон Республикаси Марказий Банкнинг “Кредит бюрolari ва кредит бюрolarига кредит ахборотини тақдим этувчи органлар ва ташкилотлар ўртасида кредит ахбороти алмашинуви тартиби тўғрисида” ги №2330 сонли низоми.

3. (Қарор, 2017й) Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика банк тизимини янада ривожлантириш ва барқарорлигини ошириш чора тадбирлари тўғрисида” ги №3270-сонли қарори.

4. Абдуллаева (2017) “Кредит ва кредитлаш амалиёти”.-Т.: Иқтисод- молия, -Б. 225-228.

www.bfajournals.uz.

www.cbu.uz.